


O'zbekiston va Mo'g'uliston Prezidentlari o'zaro manfaatli hamkorlikni chuqurlashtirish borasidagi navbatdagi qadamlarni kelishib oldilar



O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 1-dekabr kuni BAAga amaliy tashrif doirasida Mo'g'uliston Prezidenti Uxnaagiy Xurelsux bilan uchrashdi.

O'zbekiston bilan Mo'g'uliston o'rtaisdagi an'anaviy do'stlik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada rivojlantirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'tgan yil sentyabr oyida Samarqandda o'tgan uchrashuv kelishuvlarini amalga oshirishga alohida e'tibor qaratildi.

O'zaro savdodagi ijobiy sur'at mammuniyat bilan qayd etildi. Chorvachilik, oziq-ovqat, charm, agrar, to'qimachilik va boshqa tarmoqlarda hamkorlik uchun keng imkoniyatlar mavjud.

Avtomobil va havo kommunikatsiyalari, turizm, hududlararo va madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash kabi sohalarda shartnoma-huquqiy asoslarni takomillashtirishdan manfaatdorlik bildirildi.

Kelgusi yilda qo'shma Hukumatlararo qo'mita va Ishbilarmonalr kengashining birinchi yig'ilishlarini o'tkazishga kelishildi.

Ushbu uchrashuv yakunlari bo'yicha o'zaro manfaatli hamkorlikni yanada kengaytirishning "yo'l xaritasi"ni qabul qilishga ahslashib olindi.

Manba